

O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY STRATEGIK YO'NALISHLARI

Rustamova Feruza Furkatovna

Buxoro xalqaro universiteti, ikkinchi bosqich magistranti

E-mail: rustamovaferuza014@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy strategik yo'naliishlari yoritiladi. Mustaqillikdan so'ng mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, bozor mexanizmlarini takomillashtirish va xalq farovonligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Tezisda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, xususiy sektor faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, sanoatni diversifikatsiya qilish hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirish asosiy ustuvor yo'naliishlar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona foydalanish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish va inson kapitaliga investitsiyalarni oshirishning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. "Yashil iqtisodiyot" konsepsiysi doirasida ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi manbalardan keng foydalanish yo'naliishlari ham iqtisodiy o'sish strategiyasining muhim tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, iqtisodiy o'sish, strategik yo'naliishlar, modernizatsiya, barqaror rivojlanish, makroiqtisodiy barqarorlik, xususiy sektor, xorijiy investitsiyalar, sanoat, eksport, innovatsiyalar, xalqaro tajriba.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalash jarayonida muhim bosqichlarni bosib o'tdi. Mamlakatda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiy tizimning bozor mexanizmlariga asoslangan holda shakllanishi hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modelining tanlanishi natijasida iqtisodiyotda sezilarli o'zgarishlarga erishildi. Xususan, so'nggi yillarda davlat

tomonidan olib borilayotgan modernizatsiya siyosati, ishlab chiqarishni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalgan qilingan qarorlar mamlakat iqtisodiy o'sishini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy strategik yo'nalishlarini belgilash va ularni ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi — aholi farovonligini oshirish, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash hamda mamlakatni taraqqiy etgan davlatlar qatoriga olib chiqishdir. Bu borada ishlab chiqilgan uzoq muddatli strategik dasturlar, jumladan, "Harakatlar strategiyasi", "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va "O'zbekiston–2030" konsepsiyalari mamlakat iqtisodiy o'sishini jadallashtirishga qaratilgan. Mazkur hujjatlarda iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni keng joriy etish, qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish, xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirish, tashqi savdo munosabatlarini diversifikatsiya qilish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Bu esa O'zbekistonning kelajakdagi iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va xalqaro maydonligi mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng muhim omillaridan biri – bu ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishdir. O'zbekistonda so'nggi yillarda sanoatni modernizatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon mamlakatni xomashyo yetkazib beruvchidan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi davlatga aylantirish yo'lida muhim qadamlardan biridir. Shu bilan birga, sanoat bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi sohasida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, klaster tizimining joriy etilishi, zamonaviy agrotexnologiyalarni keng qo'llash, sug'orish tizimlarini takomillashtirish orqali qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida sezilarli natijalar kuzatilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ham O'zbekiston iqtisodiy o'sishida muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki davlat boshqaruvini soddalashtiradi, moliya bozorlarida shaffoflikni ta'minlaydi hamda aholi uchun qulay xizmatlar ko'rsatishga zamin yaratadi. Shu bois mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashtirilmoqda va bu yo'nalish iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylanmoqda.

Shuningdek, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda inson kapitalining roli beqiyosdir. Aholining bilim darajasini oshirish, zamonaviy malakali kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish orqali mehnat unumdorligini yuksaltirish mumkin. O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish, oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlarini joriy etish va yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bularning barchasi uzoq muddatda iqtisodiy o'sishning barqaror omiliga aylanadi.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalar ham alohida o'rin tutadi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, qulay biznes muhitini yaratish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish orqali iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar shakllantirilmoqda. Bu borada O'zbekistonda olib borilayotgan ochiq iqtisodiyot siyosati, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish ham ijobjiy natijalar bermoqda.

Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarni o'zlashtirish ham iqtisodiy o'sishning muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali mamlakatning global iqtisodiyotdagi o'rni mustahkamlanmoqda.

Energiya resurslaridan oqilona foydalanish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish ham iqtisodiy o'sishni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Qayta

tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash, ekologik muvozanatni saqlash nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylanadi. Shu ma'noda, O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining qabul qilinishi va amaliyatga tatbiq etilishi kelajakda iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

So'nggi yillarda davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar, xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatning iqtisodiy yo'l xaritasini belgilab berdi. Unda sanoatni diversifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalgan etish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish kabi yo'nalishlar asosiy strategik vazifalar sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim va ilm-fanni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish ham iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotni joriy etish jarayoni ham mamlakat iqtisodiy siyosatida alohida o'rin tutmoqda chunki raqamli texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki davlat boshqaruvi va xizmat ko'rsatish tizimini ham tezkor va shaffof qilish imkonini beradi. Bu esa iqtisodiy rivojlanishga qo'shimcha turki beradi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini ham alohida strategik yo'nalish sifatida ko'rilmoxda. Resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ekologik xavfsizlikni ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Mintaqaviy integratsiya va xalqaro iqtisodiy hamkorlik O'zbekiston uchun yana bir muhim yo'nalishdir. Markaziy Osiyodagi transport-logistika tizimini rivojlantirish, qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini oshirish iqtisodiy o'sish strategiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bundan tashqari, moliya tizimining barqarorligi, bank sektorining rivoji va kapital bozorining shakllanishi ham investitsiyalarni jalgan qilish uchun muhim shart-sharoit yaratadi.

O'zbekiston iqtisodiy o'sishini ta'minlashning strategik yo'nalishlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, kompleks yondashuvni talab qiladi. Quyidagi jadvalda ushbu asosiy yo'nalishlarning mohiyati, maqsadi va kutilayotgan natijalarni ko'rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy strategik yo'nalishlari¹

Strategik yo'nalish	Mazmuni	Maqsadi	Kutilayotgan natija
Sanoatni diversifikasiya qilish	Xomashyo eksportiga qaramlikni kamaytirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish	Raqobatbardosh mahsulotlar yaratish	Eksport hajmini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish
Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish	Agrotexnologiyalarni joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash	Hosildorlikni oshirish, qishloq aholisi farovonligini ko'tarish
Xorijiy investitsiyalarni jalb etish	Sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratish	Yangi texnologiyalar va moliyaviy resurslarni keltirish	Ish o'rirlari yaratish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish	AKTni barcha sohalarga keng tatbiq etish	Samaradorlik va shaffoflikni oshirish	Davlat xizmatlari sifatini yaxshilash,

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi
<https://scientific-jl.com/>

			yangi startaplar paydo bo'lishi
Inson kapitaliga investitsiya	Ta'lim, ilm-fan va kadrlar salohiyatini oshirish	Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash	Innovatsion rivojlanish uchun asos yaratish
Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik	Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi manbalarni keng joriy etish	Resurslardan oqilona foydalanish	Ekologik xavfsizlikni ta'minlash, energiya importiga qaramlikni kamaytirish
Mintaqaviy integratsiya	Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni kuchaytirish	Transport-logistika imkoniyatlarini oshirish	Jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish
Moliyaviy tizimni rivojlantirish	Bank va kapital bozorini mustahkamlash	Investitsiyalarni jalb qilish	Moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish

Yuqorida keltirilgan yo'naliishlar O'zbekiston iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun kompleks strategik chora-tadbirlar majmuini ifodalaydi. Ularning har biri o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, umumiy maqsad – mamlakat iqtisodiy mustaqilligi, barqaror rivojlanish va xalq farovonligini oshirishga xizmat

qiladi. Avvalo, sanoatni diversifikatsiya qilish orqali xomashyo eksportiga qaramlikni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning tabiiy resurslarga boyligi iqtisodiy afzallik bo'lsa-da, faqat xomashyo sotish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishib bo'lmaydi. Shu bois tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish raqobatbardoshlikni oshiradi. Bu esa eksport hajmini ko'paytirib, davlat byudjeti daromadlarini mustahkamlaydi.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish esa aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan birga, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va agroklastерlarni rivojlantirish orqali qishloq aholisi farovonligini oshirish mumkin. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakat uchun yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish quvvatlari va moliyaviy resurslarni olib kiradi. Investitsiyalar orqali ko'plab yangi ish o'rnlari yaratiladi, bu esa aholi bandligini ta'minlaydi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bugungi globallashuv davrida eng muhim yo'nalishlardan biridir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini barcha sohalarga keng tatbiq etish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, davlat xizmatlarini tezkor va shaffof qiladi, shuningdek, innovatsion startaplar rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Inson kapitaliga investitsiya iqtisodiy rivojlanishning eng asosiy omillaridan hisoblanadi. Chunki zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalarni tatbiq etadi. Ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish, yoshlarning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash kelajakdagi iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi. "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish ham kelgusida O'zbekiston uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ekologik xavfsizlikni ta'minlabgina qolmay, energiya importiga qaramlikni kamaytiradi. Bu esa milliy iqtisodiyotning barqarorligiga hissa qo'shadi.

Mintaqaviy integratsiya va transport-logistika tizimini rivojlantirish esa O'zbekistonning jahon bozorlariga chiqishini osonlashtiradi. Qo'shni davlatlar

bilan iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi savdo hajmini ko'paytiradi va mamlakatning strategik mavqeini oshiradi. Moliyaviy tizimni rivojlantirish esa barcha yo'naliislarni qo'llab-quvvatlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Bank sektorini isloh qilish, kapital bozorini rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan yo'naliislarni o'zaro uyg'unlikda mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilab beradi. Bu yo'naliislarni amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston xalqaro maydonda raqobatbardosh mamlakatga aylanishi, aholining farovonligi oshishi va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalasi nafaqat milliy taraqqiyotning poydevori, balki xalqaro maydondagi raqobatbardoshlikni mustahkamlash omili sifatida ham alohida ahamiyatga ega. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiyotning ochiqligi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim rol o'ynayapti. Biroq mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun strategik yo'naliislarni izchil amalga oshirish, ularni zamon talablari va xalqaro tajriba asosida takomillashtirish talab etiladi.

Kelajakda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni kuchaytirish alohida e'tibor talab qiladi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizimni erkinlashtirish va investitsion muhitni yaxshilash zarur. Qishloq xo'jaligida zamonaviy agrotexnologiyalarni keng qo'llash va qayta ishslash sanoatini rivojlantirish ham iqtisodiyotning barqaror o'sishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy sohalarni, xususan, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish orqali inson kapitaliga sarmoya kiritish, aholining

turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish iqtisodiy barqarorlikning mustahkam poydevorini yaratadi. Transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish esa O‘zbekistonning mintaqaviy hamkorlikda ishonchli ko‘prikka aylanishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishini ta’minlash bo‘yicha strategik yo‘nalishlarni samarali amalga oshirish uchun davlat siyosati va xususiy sektor tashabbuslari o‘zaro uyg‘unlashgan holda olib borilishi, xalqaro hamkorlik yanada kuchaytirilishi va resurslardan oqilona foydalanimishi zarur. Shu yo‘l bilan mamlakat barqaror rivojlanishga erishib, iqtisodiy salohiyatini yanada kengaytirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni
3. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2021. 768 bet.
4. T.T.Jo‘rayev, M.A.Hamdamov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2024. 504 bet.
5. Mamatov M.A. Iqtisodiy o‘sish: O‘quv qo‘llanma – T.: TDIU, 2021. 435 bet. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).
6. Xajiyev B.D., Abdullayev S.O., Mambetjanov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Darslik. – T.: “Zebo yulduzlari MChJ”, 2018. - 417 bet.
7. Mamatov M.A., Abduvohidov A.A., Berdiyev G., va boshqalar Iqtisodiy o‘sish: Darslik– T.: TDIU, GulDU «Ziyo nashr matbaa», 2022. – 484 bet.
8. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.